



Kreativ yozma topshiriqlarni qo'llashda foydalanilgan metod va texnologiyalar

Jaxongirova Sanobarxon Dilmurodjon qizi –
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida kreativ yozma topshiriqlarni qo'llashning metodik va texnologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, yozma nutq madaniyati va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda tajriba-sinov ishlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Sinkveyn", "Baliq skeleti" (Fishbone), "Venn diagrammasi", "Storytelling" kabi interfaol metodlar, muammoli va loyiha asosida o'qitish texnologiyalari hamda didaktik o'yinlarning kreativ matn yaratishdagi amaliy samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ona tili, kreativ yozma topshiriq, interfaol metodlar, tajriba-sinov, ijodiy tafakkur, Sinkveyn, Baliq skeleti, AKT, loyiha ishi.

Методы и технологии, использованные при применении креативных письменных заданий

Аннотация. В данной статье освещаются методические и технологические основы применения креативных письменных заданий на уроках родного языка в начальных классах. В исследовании анализируются роль и значение опытно-экспериментальной работы в развитии творческого мышления, культуры письменной речи и навыков самостоятельного суждения учащихся. В статье научно обоснована практическая эффективность таких интерактивных методов, как «Мозговой штурм», «Кластер», «Инсерт», «Синквейн», «Рыбий скелет» (Fishbone), «Диаграмма Венна», «Сторителлинг», а также технологий проблемного и проектного обучения и дидактических игр в процессе создания креативного текста.

Ключевые слова: начальные классы, родной язык, креативное письменное задание, интерактивные методы, опытно-экспериментальная работа, творческое мышление, Синквейн, Рыбий скелет, ИКТ, проектная деятельность.

Methods and technologies used in the application of creative written assignments

Annotation. This article highlights the methodical and technological framework for applying creative writing tasks in primary school native language classes. The study analyzes the role and significance of experimental and trial work in developing students'

creative thinking, written speech culture, and independent reasoning skills. The article scientifically proves the practical effectiveness of interactive methods such as "Brainstorming", "Cluster", "Insert", "Cinquain", "Fishbone", "Venn Diagram", and "Storytelling", as well as problem-based learning, project-based technologies, and didactic games in the process of generating creative texts.

Keywords: *primary school, native language, creative writing task, interactive methods, experimental work, creative thinking, Cinquain, Fishbone, ICT, project-based learning.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimidagi islohotlarning tub mohiyati o'quvchilarga faqatgina tayyor akademiklarni yodlatish emas, balki ularda mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Xususan, boshlang'ich sinf davri bolaning nutqi, tafakkuri va ijodiy salohiyati jadal rivojlanadigan eng poydevor bosqich hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmonida hamda 2024-yil fevral oyidagi maktab ta'limini xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilishga oid ustuvor vazifalarda darsliklarning mazmuni va o'qitish metodikasini o'quvchilarda "yodlash emas, fikrlashni" shakllantiruvchi formatga o'tkazish zarurligi qat'iy belgilab qo'yildi. Davlatimiz rahbarining ta'kidlaganlaridek: "Maktab faqat ma'lumot beradigan muassasa bo'lib qolmasligi kerak, u o'quvchini mustaqil va ijodiy fikrlashga, hayotga tayyorlashga xizmat qilishi lozim".

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida yozma nutqni o'stirish an'anaviy ravishda quruq ko'chirib yozish yoki qolipli bayonlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishda ona tili ta'limining o'rni haqida to'xtalib, shunday deydi:

"Ona tili – bu millatning ruhidir. Biz bolalarimizni maktab partasidanoq o'z fikrini ona tilida go'zal, ravon va mantiqiy asoslangan holda ham og'zaki, ham yozma ravishda mustaqil bayon eta oladigan qilib tarbiyalashimiz shart". Bu esa o'quvchining shaxsiy dunyoqarashi, fantaziyasi va subyektiv kechinmalarini aks ettira oladigan kreativ yozma ishlarni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etishni taqozo etmoqda. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy yozma faoliyatni tashkil etish mexanizmlari va uning pedagogik-psixologik xususiyatlari hali ham mukammal ilmiy-metodik asoslashga muhtoj. Kreativ yozma topshiriqlar o'quvchini darsning passiv tinglovchisidan faol ijodkoriga aylantiradi, uning so'z boyligini oshiradi va fikrini mantiqiy, izchil hamda jozibador shaklda bayon etishiga zamin yaratadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – yuqorida qayd etilgan davlat dasturlari va ta'limiy strategiyalar ijrosini ta'minlash kontekstida, boshlang'ich sinf ona tili darslarida kreativ yozma topshiriqlarni samarali qo'llashda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik metodlar, interfaol texnologiyalar va didaktik o'yinlarning ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib berish hamda ushbu jarayonni tajriba-sinov ishlarida tizimli tashkil etish yo'llarini ko'rsatishdan iboratdir.

Foydalanilgan metod va texnologiyalar

Tajriba-sinov ishlarini ilmiy asosda tashkil etish pedagogik tadqiqotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kreativ yozma ishlarni qo'llash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, yozma nutq ko'nikmalarini takomillashtirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy natijalar beradi. Shu sababli pedagogik tadqiqotlarda tajriba-sinov ishlarini tizimli va puxta tashkil etish zarur hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kreativ yozma topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini

shakllantirish hamda yozma nutqini boyitishda muhim ahamiyatga ega. Bunday topshiriqlarni samarali tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalardan foydalanish zarur. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi hamda ijodiy faoliyatga undaydi.

Kreativ yozma topshiriqlarni qo'llash jarayonida bir qator interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Bu metodlar o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Birinchi metod – “Aqliy hujum” (Brainstorming) metodidir. Ushbu metod o'quvchilarning erkin fikr bildirishiga imkon yaratadi. Dars jarayonida o'qituvchi ma'lum bir mavzu yoki muammoli savolni o'rta tashlaydi va o'quvchilar o'z fikrlarini erkin tarzda bayon qiladilar. Bu jarayonda har qanday g'oya qabul qilinadi va tanqid qilinmaydi. Keyinchalik o'quvchilar ushbu g'oyalar asosida matn yoki hikoya yozishlari mumkin. Bu metod o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va ularning kreativ fikrlashini rivojlantiradi.

Ikkinchi metod – “Klaster” usuli hisoblanadi. Bu usul o'quvchilarning mavzu yuzasidan fikrlarini tizimlashtirishga yordam beradi. O'qituvchi doskaga asosiy mavzuni yozadi, o'quvchilar esa shu mavzu bilan bog'liq fikr va tushunchalarni aytadilar. Ushbu fikrlar klaster shaklida joylashtiriladi. Keyinchalik o'quvchilar klaster asosida matn tuzadilar. Bu metod o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Uchinchi metod – “Insert” texnologiyasi hisoblanadi. Bu metod asosan matn bilan ishlash jarayonida qo'llaniladi. O'quvchilar matnni o'qish jarayonida muhim fikrlarni belgilab boradilar va keyinchalik ushbu fikrlar asosida yangi matn yaratadilar. Bu metod o'quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi hamda matnni chuqur anglashga yordam beradi.

To'rtinchi metod – “Rolli o'yinlar” usulidir. Rolli o'yinlar orqali o'quvchilar turli obrazlarni tasavvur qiladilar va o'sha obraz nomidan matn yoki dialog yozadilar. Masalan, o'quvchilarga “Agar men sayohatchi bo'lganimda” yoki “Agar men tabiat himoyachisi bo'lganimda” kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bu usul o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va ularni ijodiy fikrlashga undaydi.

Beshinchi metod – “Muammoli ta'lim” texnologiyasidir. Bu texnologiyada o'quvchilarga muammoli vaziyatlar taqdim etiladi va ular ushbu vaziyatga yechim topishlari kerak bo'ladi. O'quvchilar muammoni tahlil qilib, o'z fikrlarini yozma shaklda ifodalaydilar. Bu jarayon o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, kreativ yozma topshiriqlarni tashkil etishda didaktik o'yinlar texnologiyasi ham keng qo'llaniladi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning faol ishtirokini ta'minlaydi. Masalan, “Hikoyani davom ettir”, “So'zlardan matn tuz”, “Ertak yarat” kabi o'yinlar o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kreativ yozma topshiriqlarni qo'llashda yana bir muhim texnologiya – hamkorlikda o'qitish texnologiyasidir. Bu texnologiya asosida o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib ishlaydilar. Har bir guruh berilgan mavzu asosida matn yaratadi yoki hikoya yozadi. Guruhli ish jarayonida o'quvchilar bir-birining fikrlarini tinglaydilar, muhokama qiladilar va umumiy xulosaga keladilar. Bu esa ularning muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning nafaqat yozma nutqini, balki ularning shaxsiy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Bunday metodlar orqali o'quvchilar mustaqil fikr yuritishga, o'z g'oyalarini ifodalashga va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga o'rganadilar.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kreativ yozma topshiriqlarni samarali tashkil etish o'qituvchidan zamonaviy pedagogik metod va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Chunki bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faqat bilim olishlari emas, balki mustaqil fikrlashlari, ijodiy yondashuvni namoyon etishlari va o'z fikrlarini erkin bayon qila olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ yozma topshiriqlar aynan shu

maqsadga xizmat qiladi. Bunday topshiriqlarni samarali tashkil etishda turli metodik usullar va pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Ona tili darslarida kreativ yozma ishlarni tashkil etishda "Sinkveyn" (Cinquain) metodidan foydalanish samarali hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarning mavzuni qisqa, aniq va ijodiy ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Sinkveyn besh qatordan iborat kichik she'riy shakl bo'lib, har bir qatorda ma'lum grammatik talablar qo'yiladi. Masalan, birinchi qatorda mavzu ifodalangan bitta so'z, ikkinchi qatorda mavzuni tasvirlovchi ikki sifat, uchinchi qatorda uchta fe'l, to'rtinchi qatorda mavzuga munosabat bildiruvchi gap va beshinchi qatorda mavzuning mazmunini umumlashtiruvchi so'z yoziladi. Bu metod o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va ularning so'z boyligini oshiradi.

Kreativ yozma topshiriqlarni qo'llashda "Baliq skeleti" (Fishbone) texnologiyasi ham samarali hisoblanadi. Bu texnologiya o'quvchilarning sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. O'qituvchi doskada baliq skeleti shaklini chizadi va asosiy muammoni "baliq boshiga" yozadi. O'quvchilar esa ushbu muammoning sabablarini va natijalarini skeletning boshqa qismlariga yozadilar. Keyinchalik o'quvchilar ushbu fikrlar asosida matn yoki kichik hikoya yozishlari mumkin. Bu usul o'quvchilarning tahliliy va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, kreativ yozma topshiriqlarni tashkil etishda "Venn diagrammasi" metodidan foydalanish ham samarali natija beradi. Bu metod ikki yoki undan ortiq tushunchalarni taqqoslash imkonini beradi. Masalan, "qish" va "yoz" fasllari, "shahar" va "qishloq" hayoti yoki "do'stlik" va "yolg'izlik" tushunchalarini taqqoslash topshirig'i berilishi mumkin. O'quvchilar diagramma orqali o'xshash va farqli jihatlarni aniqlaydilar, keyinchalik shu asosda yozma matn tuzadilar. Bu metod o'quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Kreativ yozma topshiriqlarni tashkil etishda "Storytelling" (hikoya yaratish) texnologiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiya orqali o'quvchilar turli voqealarni tasavvur qiladilar va ular asosida hikoya yaratadilar. O'qituvchi o'quvchilarga rasm, kalit so'zlar yoki qisqa voqea boshlanishini berishi mumkin. O'quvchilar esa ushbu material asosida hikoya yozadilar. Bu texnologiya o'quvchilarning fantaziyasini rivojlantiradi va ularning ijodiy fikrlashini faollashtiradi. Yana bir samarali metod – "Konseptual jadval" usulidir. Bu usul orqali o'quvchilar mavzu yuzasidan ma'lumotlarni tizimli ravishda tartibga soladilar. O'qituvchi jadval tuzadi va unda mavzu bilan bog'liq asosiy tushunchalarni joylashtiradi. O'quvchilar jadvalni to'ldiradilar va keyinchalik ushbu ma'lumotlar asosida yozma matn tuzadilar. Bu metod o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantiradi.

Kreativ yozma topshiriqlarni qo'llash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilarga turli vizual materiallar, videolar yoki interaktiv topshiriqlar taqdim etish mumkin. Masalan, slaydlar orqali rasmiy topshiriqlar berish yoki interaktiv doskadan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni faol ishlashga undaydi. Shuningdek, kreativ yozma topshiriqlarni tashkil etishda loyiha asosida o'qitish texnologiyasi ham samarali hisoblanadi. Bu texnologiyada o'quvchilar ma'lum bir mavzu bo'yicha kichik loyiha tayyorlaydilar. Masalan, "Tabiatni asraylik", "Mening orzuimdagi maktab" yoki "Sevimli qahramonim" kabi mavzularda loyiha tayyorlash jarayonida o'quvchilar turli matnlar yozadilar, hikoyalar tuzadilar va o'z g'oyalarini taqdim etadilar. Bu jarayon o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ yozma nutqini shakllantirish ta'lim tizimidagi eng muhim pedagogik vazifalardan biridir. O'tkazilgan tadqiqot va nazariy tahlillar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Tizimlilik va ilmiy asos: Tajriba-sinov ishlarini ilmiy asosda, bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etish o'quvchilarning real ijodiy salohiyatini aniqlash hamda metodikaning samaradorligini baholashda asosiy mezon hisoblanadi.

Metodik rang-baranglik: Dars jarayonida faqatgina bitta metod bilan cheklanib qolmasdan, vizual va mantiqiy tuzilmaga ega bo'lgan "Sinkveyn", "Baliq skeleti", "Venn diagrammasi" hamda "Storytelling" kabi texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo'llash kutilganidan ham yuqori samara beradi. Bu metodlar o'quvchining so'z boyligini oshirish barobarida, sabab va oqibat aloqalarini tushunishga o'rgatadi.

Motivatsiya va muhit: Muammoli ta'lim, AKT imkoniyatlari va didaktik o'yinlardan foydalanish darsdagi zerikarli qoliqlarni parchalab, o'quvchida yozma ish bajarishga nisbatan ichki motivatsiya va qiziqish uyg'otadi. Guruhlarda hamkorlikda ishlash esa ijtimoiy moslashuv va muloqot madaniyatini yuksaltiradi.

Umuman olganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etilgan kreativ yozma topshiriqlar boshlang'ich sinf o'quvchisini erkin mushohada yuritadigan, o'z fikrini yozma shaklda dadil va ta'sirli ifoda eta oladigan komil shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Taqdim etilgan ushbu metodik tizim boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun amaliy qo'llanma va kelgusi pedagogik tadqiqotlar uchun muhim manba bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bland J. Key Strategies for a Focus on Creative Writing in ELT – Using Mentor Texts in Teacher Education // Children's Literature in English Language Education. – 2023. – Vol. 11, № 2. – P. 28–53.
2. Graham S., Perin D. Writing Next: Effective Strategies to Improve Writing of Adolescents in Middle and High Schools: A Report to Carnegie Corporation of New York. – Washington, DC: Alliance for Excellent Education, 2007. – 77 p.
3. Harmer J. How to Teach Writing. – Harlow: Pearson Education Limited, 2004. – 160 p.
4. Hyland K. Second Language Writing. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 299 p.
5. Maley A., Peachey N. (eds.). Creativity in the English Language Classroom. – London: British Council, 2015. – 172 p.
6. Raimes A. Techniques in Teaching Writing. – New York: Oxford University Press, 1983. – 164 p.
7. Yeh C.C. Creative Writing in an EFL Writing Class: Student Perspectives // English Teaching & Learning. – 2017. – Vol. 41, № 3. – P. 1–29.